



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-sentabr*



NAMANGAN VILOYATINING DOIMIY AHOLISI SONI.

2024- yil 1- oktyabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyatida 2024- yil 1-oktyabr holatiga doimiy aholi soni **3115,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **49,2** ming kishiga yoki **1,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **2021,7** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **64,9 %**), qishloq aholisi soni **1093,6** ming kishi (**35,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3115,3 ming kishi

Tabiiy o'sish

+50,7 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi.

Shahar



64,9%

Qishloq



35,1%

Namangan viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar.

2024- yil yanvar-sentabr, ming kishi



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi.

2024- yil 1-oktabr holatiga



72,7 yosh

76,2 yosh

2024-yilning 1-yanvar holatiga Namangan viloyati aholisining oʻrtacha umr koʻrish davomiyligi **74,5** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **72,7** yoshga, ayollar uchun esa **76,2** yoshga teng.

Erkaklar

Ayollar



50,8%

49,2%



Doimiy aholi soni
3115,3 ming kishi

1583,7 ming kishi

1531,6 ming kishi

Doimiy aholi sonining hududlar boʻyicha taqsimlanishi.

1-oktyabr holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	Oʻsish surʼati, % da
Namangan viloyati	3048,8	3115,3	102,2
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	692,3	709,5	102,5
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	136,2	139,1	102,1
Kosonsoy	226,5	231,9	102,4
Namangan	191,6	196,0	102,3
Norin	175,0	178,3	101,9
Pop	234,6	238,8	101,8
Toʻraqoʻrgʻon	243,8	249,3	102,3
Uychi	231,0	236,2	102,3
Uchqoʻrgʻon	184,5	187,8	101,8
Chortoq	213,6	218,0	102,1
Chust	283,9	289,9	102,1
Yangiqoʻrgʻon	235,8	240,5	102,0


Namangan viloyati boʻyicha aholi zichligi.

Namangan viloyatida 2024- yil 1-oktyabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **418,7** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **8,9** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **409,8** kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Namangan shahrida **4729,3** kishi, Namangan tumanida **980,0** kishi, To‘raqo‘rg‘on tumanida **923,3** kishi, Norin tumanida **849,0** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Pop tumanida **82,1** kishi, Mingbuloq tumanida **188,0** kishini tashkil etgan.


Namangan viloyati bo‘yicha aholi zichligi dinamikasi.

1 yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



Namangan viloyati bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar.

2024 yil yanvar-sentabr



■ Tug'ilganlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-sentabr, kishi

Namangan shahar	15425	29,3 ‰
Chust	5427	25,2 ‰
To'raqo'rg'on	5038	27,2 ‰
Uychi	4869	27,8 ‰
Kosonsoy	4695	27,3 ‰
Yangiqo'rg'on	4430	24,8 ‰
Pop	4232	23,8 ‰
Chortoq	4094	25,3 ‰
Namangan	3995	27,5 ‰
Uchqo'g'on	3535	25,3 ‰
Norin	3342	25,2 ‰
Mingbuloq	2639	25,5 ‰

2024- yil yanvar-sentabr oylarida **61,7** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **26,7** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **-1,2** promillega kamayganligini kuzatildi (2023- yilda **27,9** promilleni tashkil etgan).


Namangan viloyati bo'yicha vafot etganlar.

2024 yil yanvar-sentabr



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **11,0** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega ko'payganligini kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,5** promille bo'lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi.

2024- yil yanvar-sentabr, kishi




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan oʻlim holatining **53,3 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,7 %** i – oʻsimtalardan, **7,5 %** i – nafas olish aʼzolari kasalliklaridan, **5,8 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,6 %** i – ovqat hazm qilish aʼzolari kasalliklaridan, **1,4 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **17,8 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

**Namangan viloyati boʻyicha qayd etilgan nikohlar.
2024 yil yanvar-sentabr**




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti.




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **14,2** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **6,3** promille bo'lgan).

**Namangan viloyati bo'yicha nikohdan ajralishlar.
2024 yil yanvar-sentabr**



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-sentabr, birlik



2024- yil yanvar-sentabr oylarida **3,1** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promille kamayganligini kuzatildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida **1,5** promille bo'lgan)

Namangan viloyati aholi migratsiyasi.

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **2 633** kishini, Ko'chib ketganlar soni esa **4 175** kishini tashkil etdi.

**Namangan viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar
va ko'chib ketganlar soni.**

2024- yil yanvar-sentabr, kishi

	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar
	jami	jami
Namangan viloyati	2633	4175
shahar:		
Namangan shahri	1101	920
tumanlar:		
Mingbuloq	76	141
Kosonsoy	122	223
Namangan	154	220
Norin	253	403
Pop	220	434
To'raqo'rg'on	150	232
Uychi	180	268
Uchqo'rg'on	92	393
Chortoq	70	256
Chust	127	421
Yangiqo'rg'on	88	264


**JAMI KO'CHIB KELGANLAR.
2024 yil yanvar-sentabr**



■ Ko'chib kelganlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da

Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 2,6 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 0,9 promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR.


2024 yil yanvar-sentabr



■ Ko'chib ketganlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da

Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 4,2 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 1,8 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan 0,2 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 1,6 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari

tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi

Tel: 69 227-84-91